

**O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD 03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**RAXMATOVA NODIRA IMAMOVNA**

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA KREATIV  
FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHALARI**

**19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2025**

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on  
Psychological Sciences**

**Raxmatova Nodira Imamovna**

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirishning  
psixologik jihatlari..... 3

**Рахматова Нодира Имамовна**

Психологические аспекты развития креативного мышления у будущих  
учителей начальных классов..... 21

**Raxmatova Nodira Imamovna**

Psychological aspects of developing creative thinking in future primary school  
teachers..... 41

**E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 46

**O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD 03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**RAXMATOVA NODIRA IMAMOVNA**

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA KREATIV  
FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHLTLARI**

**19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/P765 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining ([www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Jurayev Bahrom**

psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Kamilova Nodira G‘ayratovna**

psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Latipova Umida Yusufboyevna**

psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro xalqaro universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «\_\_» «\_\_\_\_\_» soat \_\_\_\_ da majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz))

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «\_\_» «\_\_\_\_\_» kuni tarqatildi.

(2025-yil «\_\_» «\_\_\_\_\_» da \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi)

**F.A.Akramova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**N.B.Atabayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Z.T.Nishanova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda inson bilim salohiyati - intellektual kapitaliga bo'lgan ehtiyojning ortishi «intellekt» va «kreativlik» kategoriyalariga turli madaniy, ta'limiy va ijtimoiy-psixologik munosabatlarni nazorat qilib turuvchi, yosh kadrlarning kasbiy faoliyatiga baho beruvchi zaruriy o'lovchi sifatida qaraladi va bu fenomen shahs tafakkuri va fikrlashini baholashda asosiy mezon sifatida qaralishi dolzarbdir. Jahonning yetakchi Head Hunter va Microsoft kompaniyalarining «XXI asr o'qituvchi va xodimlarining sifat va moslashuvchan ko'nikmalari»<sup>1</sup> nomli tadqiqotida kreativlik va hamkorlik qilish qobiliyatlari zamonaviy ta'lim va faoliyat uchun muhim deb topilgan. Bu borada jamiyatni har tomonlama ravnaqi uchun bo'lajak pedagog-o'qituvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning psixologik jihatlarini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida ta'lim oluvchilarning intellekti va kreativ fikrlashini rivojlantirishda psixologiya fanlarining o'qitilishi, integrallashgan interfaol zamonaviy psixologik ta'lim usullarini joriy etish orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlash xususiyatlarini rivojlantirish masalalariga oid ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Yosh va pedagogik psixologiya, rivojlanish psixologiyasi aspektida kreativ fikrlash xususiyatlarini rivojlantirish masalasining ko'lamini keng qamrovli bo'lgani bois tadqiqot ishizimida oliy ta'lim tizimida tayorlanayotgan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ fikrlashga yo'naltirishga doir ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmaganligi bois, mazkur muammoni alohida tadqiqot predmeti sifatida o'rganish zarurati yuzaga keladi.

Yangi O'zbekistonda inson, uning har tomonlama kamol topishi, farovonligi, manfaatlarini ro'yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta'lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasida gi izchil islohotlar natijasida oliy ta'lim o'quv jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlash xususiyatlarini rivojlantirishning zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: «...uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish»<sup>2</sup> ustuvor vazifalar etib belgilangan. Shu boisdan, mazkur mavzuni tadqiq etish ilmiy-amaliy jihatdan ham muhim bo'lib, kreativ fikrlashning psixologik jihatlarini aniqlash uchun zarur asos bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-mayda O'RQ-837-son «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O'zbekiston – 2030» Strategiyasi to'g'risida, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmonlari, 2018-yil 14-avgust PQ-3907-son «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash,

<sup>1</sup> <https://hh.ru/article/news>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi prezidentining "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022-yil 28-oktabrdagi PQ–327-sonli qarori.

ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-iyun 369-son «Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2020-yil 31-dekabrda 824-son «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari va boshqa ushbu sohaga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish mezonlari mazkur dissertatsiya tadqiqoti uchun muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.«Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekiston psixolog olimlaridan A.Abduqodirov, Sh.Abdullayeva, F.A.Choriyev, M.G.Davletshin, R.Djuraev, E.G'.G'oziyev, X.Ibraimov, U.Inoyatov, V.M.Karimova, O.Musurmonova, D.Narziqulova, Z.T.Nishonova, K.B.Qodirov, A.I.Rasulov, D.Ro'ziyeva, G'.B.Shoumarov, Sh.J.Usmanova, P.S.Ergashev va boshqalar tomonidan oliy ta'lim tizimida tahsil oluvchi boshlang'ich ta'lim yo'nalishidagi bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashini rivojlantirish va bunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy salohiyatlarini oshirish muammosiga yaqin masalalarda e'tiborga molik izlanishlar olib borilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari psixolog olimlaridan V.S.Ablova, L.G.Alekseev, Y.Aleksandrova, V.P.Bespalko, I.A.Bartashnikov, Y.K.Babanskiy, A.P.Boyko, L.F.Budankov, V.V.Davidova, T.V.Galkina, A.D.Getmanova, P.Y.Galperin, V.I.Igoshin, T.R.Kamalova, I.A.Ledovskix, V.N.Melnikov, G.A.Rubinshteyn, N.A.Ruchkova, A.Serebryakova, V.L.Skalkin, A.N.Seredinseva, A.P.Tonkix, A.Z.Zak, S.G.Yakovleva, S.Yakimanskayalar va boshqalar tomonidan kreativ fikrlashni rivojlantirishning psixologik shart-sharoitlari, kreativlikning refleksiv, kognitiv-mantiqiy jihatlari hamda mantiqiy fikrlash rivojlanishining o'ziga xosliklariga doir qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan va ilmiy tajriba maktablari ham yaratilgan.

Xorij pedagog-psixolog olimlaridan J.P.Allen, Beghetto, Frederick, L.Gabora, O.Gazman, Gigerenzer, D.Kahneman, Y.Kazakova, Ye.I.Passov, M.Pevzner, L.G.Peterson, J.Piaje, Plucker, A.Pringle, L.M.Richards, V.L.Skalkin, P.T.Sovden, L.Tarita, M.L.Vaysburd, X.G.Viddovson, E.Zeer va boshqalar tomonidan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining intellektual-kreativ rivojlanish masalalarining turli jihatlari tadqiq etilgan. Qayd etilgan mualliflarning izlanishlarida asosan kreativ fikrlashning psixologik jihatlari, intellektual rivojlanish va kreativ tafakkur dinamikasi, talabalarning kreativ salohiyati, mantiqiy-kreativ madaniyati kabi masalalar keng ko'lamda ilmiy-amaliy tadqiq etilgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalarini bilan bog'liqligi.** Dissertatsion tadqiqot

Qarshi davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatni oshirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi» mavzusidagi ilmiy–texnik loyiha doirasida bajarilgan (2021–2024 - y.y.).

**Tadqiqotning maqsadi:** bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirishning psixologik jihatlarini tadqiq etish orqali kreativ fikrlash mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ fikrlash darajasiga qarab, ularning tavakkalchilikka moyilligi, kreativ bilimlardan foydalanish ko'nikmasi va tafakkur kengligi mezonlari bo'yicha individual va differensial farqlarni aniqlashtirish;

kreativ tafakkurni shakllantirish orqali, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida hissiy barqarorlik, o'ziga ishonch, mustaqil fikrlash va intellektual moslashuvchanlik kabi psixologik sifatlarning rivojlanishini asoslash;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlash asosida mantiqiy xulosa chiqarish, emotsional nazorat, mustaqil qaror qabul qilish va muammoli vaziyatlarga yechim topish ko'nikmalarining kasbiy bilimdonlik darajasiga ta'sirini tahlil qilish;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirishning psixologik modelini kuzatuvchanlik, ijodiy xayol, tavakkalchilik va tafakkur kengligi kabi komponentlar integratsiyasi asosida ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ fikrlash jarayoni olingan bo'lib, tadqiqotda Buxoro davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti va Termiz davlat universiteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi jami 282 nafar talabalar respondent sifatida ishtirok etdi.

**Tadqiqotning predmetini** bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ fikrlash jarayoni hamda uni rivojlantirishning psixologik jihatlarini tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda Yaroslav Isaykinning «Kreativ fikrlash darajasini baholashning besh omilli» so'rovnomasi, R.B.Kettellning «Shaxsni 16 omilli xususiyatlarini baholash» so'rovnomasi, E.Tunikning «Kreativlik xususiyatlarini o'rganish» metodikasi, N.Hollning «Emotsional intellekt» so'rovnomasi, D.Ravanning «Umumiy intellekt» metodikalaridan foydalanilgan. Olingan natijalarning statistik ishonchligini tasdiqlashda SPSS 27 dasturi orqali Studentning t-mezone, foizli tahlil, Alfa-Kronbax mezone hamda K.Pirson korrelyatsiya koeffitsiyentlarini qo'llash orqali tasdiqlangan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlashni rivojlanishi tavakkalchilikka moyillik, kreativ bilimni ustunligi, tafakkur kengligi mezone bo'yicha differensial farqlarning mavjudligi tufayli individual dinamik xususiyatga ega ekanligi dalillangan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ fikrlashini rivojlantirish natijasida, ularda hissiy barqarorlik, dadillik, o'quv jarayonida o'ziga ishonch, mustaqillik, o'quv faoliyatida o'zini nazorat qilish, tafakkur kengligi, tafakkur egiluvchanligi va o'z emotsiyalarni nazorat qilish sifatlari o'ziga xos yordamchi vosita sifatida xizmat qilishi aniqlangan;

shaxsda kreativ fikrlashni rivojlantirish natijasida, ularda shaxsning o'quv jarayonini tashkil etishda o'z emotsiyalarini boshqarishi, mantiqiy fikrlashini takomillashuviga asoslanib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy bilimdonlik sifatleri shakllanganligi dalillangan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirishning psixologik modeli shaxsdagi kuzatuvchanlik, soddadan murakkablik dinamikasi, tajriba va ko'nikma mahorati, ijodiy xayol, tavakkalchilik hamda tafakkur kengligi kabi kreativlik mexanizmlarini ketma-ketligiga bog'liq holda kognitiv, hissiy-irodaviy, motivatsion, kommunikativ komponentlarni o'zaro integratsiyalash asosida takomillashtirilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagicha:**

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlashni shakllantirishga yo'naltirilgan psixologik tadqiqotlar natijasida ularning tavakkalchilikka moyilligi, yangicha innovatsion yondashuvlarga nisbatan ochiqqligi va fikrlash doirasining kengligida sezilarli farqlar mavjudligi ishlab chiqilgan hamda amaliyotga tatbiq etilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlashga yo'naltirilgan maxsus mashqlarni qo'llash natijasida ularning emotsional reaksiyalarini ongli boshqarish malakalarining kasbiy faoliyatga nisbatan ichki motivatsiyasi va tashabbuskorligi ortgani, kreativ tafakkur chuqurlashib, muammoli vaziyatlarga yangicha va moslashuvchan yondasha olish qobiliyati rivojlanganligi amaliyotda tasdiqlangan;

tadqiqotda kreativ fikrlashning psixologik modeli ishlab chiqilib, ushbu modelning kognitiv, hissiy-irodaviy, motivatsion hamda kommunikativ komponentlari o'zaro integrallashgan va funksional uyg'unligi asosida shakllantirilib, amaliyotda aprobatsiya qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot ishi jarayonida to'plangan ma'lumotlarning ishonchliligi, avvalo, tadqiqotda qatnashgan respondentlarning mos ravishda tanlab olinganligi, olingan amaliy natijalarning ilmiy jihatdan asoslab berilganligi, tadqiqot ob'yekti sifatida hududiy oliy ta'lim muassasalari tanlanganligi, tadqiqot respondentlarining salmoqli reprezentativligi, ma'lumotlarni matematik va statistik qayta ishlashning aniq usullaridan foydalanilganligi, dissertatsiya tadqiqotiga asos bo'lgan turli xil bir-birini to'ldiruvchi usullar ishonchli manbalardan foydalangan holda xulosalar, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy qilinganligi va olingan natijalar ilmiy jamoatchilik o'rtasida yetakchi olimlar ishtirokida muhokama qilingani bilan tasdiqlandi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati umumiy psixologiya, tafakkur psixologiyasi, kasbiy faoliyatning ajralmas qismi bo'lgan kreativ kompetensiyalari, shaxs determinantlari, ularning shakllanish mexanizmlari va ushbu mexanizmlarni belgilovchi omillardagi o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga yo'nalganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati uni oliy ta'lim muassasalari tizimida psixologik xizmatni samarali tashkil etishda hamda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ fikrlashini psixologik jihatdan kamol topishiga keng miqyosda yordam berishda, umumiy o'rta ta'lim tizimida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf

qilishda, o'qituvchilarda kreativ fikrlash salohiyatini oshirishda va ularda aqliy-intellektual jarayonlarni rivojlantirishda keng samara berishi, oliy ta'lim muassasalari bakalavriat va magistratura yo'nalishlarida «Ijtimoiy psixologiya», «Umumiy psixologiya», «Tafakkur psixologiyasi» kabi o'quv kurslarida ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini olib borishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirishning psixologik jihatlari bo'yicha olingan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlashni rivojlanishi tavakkalchilikka moyillik, kreativ bilimni ustunligi, tafakkur kengligi mezonini bo'yicha differensial farqlarning mavjudligi tufayli individual dinamik xususiyatga ega ekanligi dalillangan takliflar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-maydagi PM-344 son buyrug'i bilan "Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya" moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 12-maydagi PM-344 son ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlash rivojlanishiga ta'sir etuvchi o'ziga xos psixologik xususiyatlarni aniqlashtirish imkoniyati yaratilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ fikrlashni rivojlantirish natijasida, ularda hissiy barqarorlik, dadillik, o'quv jarayonida o'ziga ishonch, mustaqillik, o'quv faoliyatida o'zini nazorat qilish, tafakkur kengligi, tafakkur egiluvchanligi va o'z emotsiyalarni nazorat qilish sifatlari o'ziga xos yordamchi vosita sifatida xizmat qilishi aniqlangan takliflar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-maydagi PM-344 son buyrug'i bilan "Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya" moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 12-maydagi PM-344 son ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ fikrlashni rivojlantirish orqali, hissiy barqarorlik va dadillik singari sifatlarning o'ziga xos yordamchi vosita sifatida xizmat qilishi ochib berilgan;

shaxsda kreativ fikrlashni rivojlantirish natijasida, ularda shaxsning o'quv jarayonini tashkil etishda o'z emotsiyalarini boshqarishi, mantiqiy fikrlashni takomillashuviga asoslanib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy bilimdonlik sifatlari shakllanganligi dalillangan Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-maydagi PM-344 son buyrug'i bilan "Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya" moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 12-maydagi PM-344 son ma'lumotnomasi). Natijada shaxsda kreativ fikrlashni rivojlantirish natijasida, ularda shaxsning o'quv jarayonini tashkil etishda o'z emotsiyalarini boshqarishi, mantiqiy fikrlashining takomillashuvi ochib berilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirishning psixologik modeli shaxsdagi kuzatuvchanlik, soddadan murakkablik dinamikasi, tajriba va ko'nikma mahorati, ijodiy xayol, tavakkalchilik hamda tafakkur kengligi kabi kreativlik mexanizmlarini ketma-ketligiga bog'liq holda kognitiv, hissiy-irodaviy,

motivatsion, kommunikativ komponentlarni o‘zaro integratsiyalash asosida takomillashtirilgan takliflar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-maydagi PM-344 son buyrug‘i bilan “Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya” moduliga kiritilgan (O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 12-maydagi PM-344 son ma’lumotnomasi). Natijada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirishning psixologik model ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy mazmuni 2 ta xorijiy, 3 ta mahalliy va 9 ta respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, bulardan 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, 9 ta paragraf, boblar bo‘yicha xulosalar, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 155 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

«**Kirish**» qismda dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan, tadqiqotning metodlari, ob‘yekti va predmeti aniqlangan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil qilingan, ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi ochib berilgan hamda ilmiy va amaliy ahamiyati tavsiflangan, natijalarning ishonchligi, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va tadqiqot tuzilishi borasidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Kreativ fikrlash rivojlanishi haqida zamonaviy psixologik qarashlarning ilmiy-nazariy asoslari**» deb nomlangan bo‘lib, unda kreativ fikrlash rivojlanishi psixologik fenomen sifatida ekanligi batafsil tavsiflangan. Jumladan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda kreativ fikrlashning ahamiyati batafsil ravishda yoritib berilgan. Nazariy tahlil asosida kreativ fikrlashni rivojlantirishga doir zamonaviy psixologik yondashuvlar tahlili ko‘rib chiqilgan.

Bugungi kunda kreativ fikrlash tushunchasining aniq ta’rifining to‘laligicha ishlab chiqilmaganligi muammoga dialektik nuqtai nazardan yondashuvni talab qiladi. Shu maqsadda fikrlash, mantiqiy fikrlash, mantiqiy fikrlashni shakllantirish tushunchalariga mualliflik ta’riflari keltirildi:

a) fikrlash – shaxs bilish faoliyati jarayoni bo‘lib, voqelikni bevosita va umumlashgan holda aks ettirish bilan xarakterlanadi. Fikrlash fanlararo tadqiqotlarni, majmuaviy fanlarni o‘zida mujassamlashtiradi;

b) mantiqiy fikrlash – fikrlashning yuqori pog‘onalaridan biri bo‘lib, izchillik, ketma-ketlik asosida fikrlarning bog‘lanishini bildiradi va shaxs ijodiy faolligining

muhim qirrasini o'zida aks ettiradi;

c) mantiqiy fikrlashni shakllantirish – yaxlit tizim sifatida ta'limning maqsadi, o'qituvchi faoliyati, o'quvchi faoliyati, ta'lim natijasi, ta'lim mazmuni, shakl, metod va vositalarni o'z ichiga qamrab oladi. Bu keltirilgan ta'riflar shaxsda mazkur sifatlarni tarkib toptirishga, demokratik va insonparvar jamiyatning faol a'zosini shakllantirishga imkon beradi.

T.A.Kondrashenkovaning ta'kidlashiga ko'ra mantiqiy bilimlarning shakllanishi biror fanning asosiy mazmunini o'rganish jarayonida o'z - o'zidan sodir bo'lmaydi. Ko'plab psixologlarning tadqiqotlarida o'qitish jarayonida tafakkurning mantiqiy amallarini maxsus o'zlashtirish ob'ekti sifatida qarash maqsadga muvofiq ekanligi ko'rsatilgan. Bu holatda asosiy oliy ta'lim fanlarining maqsadlaridan biri talabalarning mantiqiy va umummantiqiy bilimlarini shakllantirishdan iborat bo'lishi lozim.

Ta'lim sohasida ro'y bergan o'zgarishlar, barcha fanlar ehtiyojlari, mantiq elementlarini o'qitish sohasidagi mutaxassislarning fikrlari asosida: mantiq elementlari pedagogika oliy ta'lim muassasalarida maxsus o'rganish predmeti bo'lishi; mantiq elementlari pedagogika oliy ta'lim muassasalarida kengroq xolda berilishi; mantiq elementlari qisman emas, balki ta'lim tizimining barcha bosqichlarida uzviy ravishda o'rganilishi maqsadga muvofiq.

N.A.Kolmakovaning qaydlariga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari shuni bilib qo'yishlari lozimki, bolaga boladek munosabatda bo'lish, uning savoliga aniq javob bermaslik, o'z fikrini baham ko'rmaslik bu – katta xatodir. Aksincha, o'quvchining o'zini bir lahzaga do'st qilib qo'ysak, unga maslahat bersak, bu bola ongini to'ldirishga, tasavvurini tezlashtirishga, so'z boyligini kengaytirishga katta yordam beradi.

Pedagog, psixolog K.D.Ushinskiyning qarashlariga ko'ra, mantiqiy fikrlash bu - barcha fanlar ostonasida turishi kerak, shuning uchun, boshlang'ich sinflarda ta'lim berishning asosiy maqsadi bu - bolani mantiqiy fikrlashga o'rgatishdir. Shu bilan birga, ko'rgazmalilik mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun muhim shart bo'lishi kerak. Ya'ni taqqoslashsiz, tushunishsiz hukm bo'lmaydi, shuning uchun bu shartlarni keng qo'llash kerak.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ fikrlashini rivojlantirishning metodologik ta'minoti**» deb nomlangan bo'lib, mazkur bobda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlardan foydalanishning psixologik jihatlari, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlashga oid tushunchalarni nostandart vaziyatlar asosida rivojlantirish va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda kreativ fikrlashni qo'llashga doir metodikalar bayoni tahlil etilgan.

Y.M.Pamoxovaning aytishicha, “kreativ fikrlash” mohiyatan keng qamrovli psixologik tushuncha sanalib, unda shaxsga xos reflektiv, prognostik, analitik, kommunikativ, proyeksion hamda tashkiliy jihatlar mujassamdir. Demak, kreativ fikrlash – insonning qadriyatlar olamiga kirishi hisoblanib, aynan unda inson mutaxassis sifatida o'zini anglaydi va yangilik yaratadi. Shuningdek, kreativ fikrlash insondagi sohaga oid bilim, ko'nikma, malaka, tajriba, qobiliyat, iste'dod, kasbiy fazilatlar, motivatsiya hamda qator xarakterologik sifatlarni mazmuniga ham javob beruvchi fenomen hisoblanadi. Uni tadqiq etish kasb va shaxs haqida o'ta ahamiyatli,

qiziqarli ma'lumotlarni aniqlashga imkon berishi ehtimoldan holi emas.

1-jadval

**E.Tunikning «Shaxs ijodkorligi darajasi» metodikasi natijalari**

Tavakkalchilikka moyillik	Guruhlar		
	BuxDU talabalari	QarDU talabalari	TerDU talabalari
Yuqori	44%	38%	40%
O'rta	30%	32%	37%
Quyi	26%	30%	23%
Kreativ bilimning ustunligi	BuxDU talabalari	QarDU talabalari	TerDU talabalari
Yuqori	31%	43%	48%
O'rta	38%	30%	36%
Quyi	31%	27%	16%
Tafakkur kengligi	BuxDU talabalari	QarDU talabalari	TerDU talabalari
Yuqori	34%	39%	44%
O'rta	40%	33%	36%
Quyi	26%	28%	20%

Tadqiqot natijalari tavakkalchilikka moyillik, kreativ bilimning ustunligi va tafakkur kengligi mezonlari bo'yicha oliy ta'lim muassasalar talabalari orasida farqlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Tavakkalchilikka moyillik shkalasi bo'yicha BuxDU talabalari bu borada eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, ular o'z pedagogik faoliyatida yangi yondashuvlarni sinab ko'rishga ko'proq moyilligi aniqlangan. QarDU va TerDU talabalari orasida ham tavakkalchilik darajasi o'rtacha va yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lishiga qaramay, nisbatan ehtiyotkorlik seziladi. Kreativ bilimning ustunligi shkalasiga ko'ra, TerDU talabalari bu borada eng yuqori natijalarni ko'rsatgan bo'lib, ularning ijodiy bilimlari mustahkamroq ekanligini ko'rsatadi. QarDU talabalari ham kreativ bilim jihatidan yetakchi pozitsiyada. BuxDU talabalari esa kreativ bilim ustunligida nisbatan pastroq natija qayd etgan.

Tafakkur kengligi shkalasi bo'yicha TerDU talabalari tafakkur kengligi jihatidan yetakchi bo'lib, ularning yangi g'oyalarni ilgari surish va muammolarga ijodiy yondashish qobiliyati yuqoriroq ekanligi namoyon bo'lgan. QarDU talabalari ham tafakkur kengligi borasida ijobiy natijalarga egaligi qayd etilgan. BuxDU talabalari esa bu borada biroz pastroq ko'rsatkichlarga ega bo'lib, ular o'z fikrlarini kengroq ifodalash uchun qo'shimcha rag'batga ehtiyoj sezishi mumkin.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirishning amaliy natijalari**» deb nomlangan bo'lib, unda tajriba sinov ishlaridan olingan natijalar tahlili, kreativ fikrlash va shaxsning ijodiylik xususiyatlari hamda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning o'ziga xosliklari kabi masalalar ilmiy tahlil etilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlash darajasini o'rganishga doir so'rovnomaga ko'ra, Buxoro davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti hamda Termiz davlat universitetlarida tahsil oluvchi talabalarining ko'rsatkichlari birinchi shkala bo'yicha, ya'ni kuzatuvchanlik malakasi M (7-5), tafovut esa (2,11\*) farqlar bilan o'zaro o'rtacha tafovutlangan. Keyingi shkala tajriba va ko'nikma mahorati bo'yicha M (6-3), farqli tafovut esa, (2,25\*) natijani

namoyon qilgan. Kreativ fikrlashning individual, ijtimoiy–psixologik, pedagogik omillari nafaqat ma’lum bir miqdorda kasbiy o’rinish haqida qaror qabul qilish bilangina belgilanmaydi. U sotsiologik, pedagogik–psixologik hamda axloqiy-etik omillar bilan ham bog’liqdir.

## 2-jadval

### Y.Isaykinning “Mantiqiy fikrlash darajasi” so’rovnomasi natijalari, (Styudentning t-mezoniga ko’ra)

Shkalalar	Guruhlar	M	t	p
Kuzatuvchanlik malakasi	Tajriba guruhi	7,5	2,11*	p≤0,05
	Nazorat guruhi	5,3		
Tajriba va ko’nikma mahorati	Tajriba guruhi	6,6	2,25*	p≤0,05
	Nazorat guruhi	3,4		
Ogohlik bilan harakat qilish qobiliyati	Tajriba guruhi	5,8	1,65	p≥0,05
	Nazorat guruhi	4,5		
O’z ichki tajribalariga befarq munosabat	Tajriba guruhi	3,2	1,24	p≥0,05
	Nazorat guruhi	3,6		
O’z tajribalariga tayanish	Tajriba guruhi	7,8	3,43**	p≤0,01
	Nazorat guruhi	3,5		

Izoh: \*p≤0,05.

Ogohlik bilan harakat qilish qobiliyati shkalasi bo'yicha tajriba va nazorat guruh respondehtlarining natijalari M (5-4), tafovut esa, (1,65) darajalar bilan o'rtachadan pastroq farqni tashkil etgan. Kreativ fikrlash insoniyat kamoloti sarchashmasi bo'lib, har bir inson u orqali o'zining jamiyatdagi o'rnini anglaydi, hayotining mazmunini belgilab oladi. Keyingi shkala o'z ichki tajribalariga befarq munosabat bo'yicha respondehtlarning ko'rsatkichlari M (3-3), tafovut esa, (1,24) farqlar bilan o'rtachadan past darajani namoyon etgan. Oxirgi shkala o'z tajribalariga tayanish bo'yicha respondehtlarning natijalari M (7-3), tafovut esa, (3,43\*\*) farqlar bilan o'zaro xarakterlangan.

## 3-jadval

### Dj.Ravenning “Umumiy intellekt darajasi” so’rovnomasi natijalari, (Styudentning t-mezoniga ko’ra)

Shkalalar	Guruhlar	M	t	p
Umumiy intellekt	Tajriba guruhi	114	2,57*	p≤0,05
	Nazorat guruhi	103		

Izoh: \*p≤0,05.

Umumiy intellektni o'lchash so'rovnomasi bo'yicha tadqiqotda ishtirok etgan respondehtlarning asosiy shkala hisoblangan, ya'ni umumiy intellekt shkalasi, respondehtlarda 114-103 darajalar bilan, ahamiyatlilik esa (2,57\*) o'rtacha natijani hamda ahamiyatlilik koeffitsienti p≤0,05 ni qayd etib, o'rtacha tafovutli qiymatlarni aks ettirgan. Shaxsdagi umumiy intellekt (general intelligence yoki g-faktori) – bu shaxsning keng qamrovli bilim olish, muammolarni hal qilish va turli vaziyatlarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini ifodalovchi tushunchadir. Bu tushuncha psixologiya sohasida muhim bo'lib, ko'plab nazariyalar va tadqiqotlar bilan bog'liq.

Umumiy intellektning asosiy xususiyatlari birinchi navbatda:

1) bilim va o'rganish qobiliyati: umumiy intellektga ega odamlar yangi ma'lumotlarni tezroq o'zlashtiradi va o'rganishlarini samarali qo'llay oladi;

2) moslashuvchanlik: bunday intellekt turli sharoitlarda yoki muhitda moslashishga yordam beradi;

3) mantiqiy fikrlash: faktlar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash va ularni asosli tarzda tahlil qilish qobiliyati;

4) ijodiylik: original fikrlar va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish qobiliyati kabilarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlashni rivojlanishida umumiy intellektning ta'siri bevosita katta hisoblanadi.

#### 4-jadval

#### E.Tunikning "Shaxs ijodkorligi darajasi" so'rovnomasi natijalari, (Styudentning t-mezoniga ko'ra)

Shkalalar	Guruhlar	M	t	p
Tavakkalchilikka moyillik	Tajriba guruhi	22,4	3,84**	p≤0,01
	Nazorat guruhi	15,7		
Kreativ bilimning ustunligi	Tajriba guruhi	20,3	2,54*	p≤0,05
	Nazorat guruhi	15,8		
Tafakkur kengligi	Tajriba guruhi	24,1	3,64**	p≤0,01
	Nazorat guruhi	17,7		
Ijodiy xayol	Tajriba guruhi	22,9	2,49*	p≤0,05
	Nazorat guruhi	18,3		

Izoh: \*p≤0,05.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlashni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini takomillashtirish shuni ko'rsatadiki, shaxs ijodkorligi darajasi so'rovnomalari ko'rsatkichlari birinchi shkala, ya'ni tavakkalchilikka moyillik bo'yicha, 22-15 va ahamiyatlilik darajasi (3,84\*\*) miqdor bilan yuqori ko'rsatkichni tashkil etgan. Keyingi shkala kreativ bilimning ustunligi 20-15 bilan, farq esa (2,54\*) o'rtachani tashkil etgan. Tafakkur kengligi shkalasi 24-17 daraja bilan, o'zaro farq (3,64\*\*) o'rtachadan yuqori natijani aks ettirgan. Oxirgi shkala esa ijodiy xayol esa 22-18 va ahamiyatlilik darajasi (2,49\*) miqdor bilan o'rtachani namoyon qilgan.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, tajriba guruhida kreativ fikrlashga yo'naltirilgan metodlarni qo'llash sezilarli ijobiy natijalarga olib kelgan. Tavakkalchilikka moyillik, kreativ bilimning ustunligi, tafakkur kengligi va ijodiy xayol ko'rsatkichlari bo'yicha tajriba guruhi nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori natijalarni ko'rsatgan. Kreativ

fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodlar tavakkalchilik qilishga moyillik, tafakkur kengligi, kreativ bilim ustunligi va ijodiy xayol kabi muhim jihatlarni sezilarli darajada oshirgan. Tajriba guruhida olingan natijalar innovatsion va kreativ pedagogik yondashuvlarning samaradorligini isbotlaydi, bunday metodlarni o‘qitish tizimida keng joriy etish lozimligini tasdiqlayotganligi ahamiyatga ega sanaladi.

5-jadvalda emotsional intellektni o‘lchash so‘rovnomasi bo‘yicha tadqiqotda ishtirok etgan respondehtlarning birinchi shkala, ya‘ni emotsional bilimdonlik shkalasi respondehtlarda 7,4-5,1 darajalar bilan, ahamiyatlilik esa (2,41\*) o‘rtacha natijani qayd etgan. O‘z emotsiyalarini boshqarish shkalasi esa, respondehtlarda o‘rtacha natija 7,8-3,6 ni, o‘rtacha farq (3,72\*\*) daraja bilan o‘rtachadan yuqori nisbatni tashkil etgan. Maqsadga erishish ishtiyoqi bilan yashaydigan odam doim o‘z faoliyat natijalari haqida xabardor bo‘lishni istaydi. Mehnat bilan bohliq vaziyat esa faoliyatidan ma‘lumot olish orqali o‘z hayot mazmunini tahlil etish imkonini beradi.

### 5-jadval

#### N.Hollning “Emotsional intellekt darajasi” so‘rovnomasi natijalari (Styudentning t-mezoniga ko‘ra)

Shkalalar	Guruhlar	M	t	p
Emotsional bilimdonlik	Tajriba guruhi	7,4	2,41*	p≤0,05
	Nazorat guruhi	5,1		
O‘z emotsiyalarini boshqarish	Tajriba guruhi	7,8	3,72**	p≤0,01
	Nazorat guruhi	3,6		
O‘z-o‘zini rag‘batlantirish	Tajriba guruhi	5,3	1,34	p≥0,05
	Nazorat guruhi	4,6		
Empatiya	Tajriba guruhi	6,9	3,54**	p≤0,01
	Nazorat guruhi	3,5		
O‘zga insonlar kechinmalarini sezish	Tajriba guruhi	7,4	3,11**	p≤0,01
	Nazorat guruhi	4,1		

Izoh: \*p≤0,05.


O‘z-o‘zini rag‘batlantirish shkalasi 5,3-4,6 o‘rtachani, ahamiyatlilik darajasi (1,34) quyi farqni tashkil etgan.

Empatiya shkalasi respondehtlarda 6,9-3,5 ni, tafovutli farq esa (3,54\*\*) ko‘rsatkich bilan yuqori qiyosiy farqni namoyon qilgan.

Oxirgi shkala o‘zga insonlar kechinmalarini sezuvchi respondehtlarda 7,4-4,1 natijani, o‘zaro farq (3,11\*\*) ko‘rsatkich bilan yuqori ahamiyatli birliklarni namoyon qilganligi bilan alohida xarakterlangani muhim ahamiyat kasb etgan.

Kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar o‘qituvchilarning emotsional bilimdonligi, o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish qobiliyati, empatiya va

boshqa insonlarning kechinmalarini sezish kabi jihatlarda ancha yuqori natijalar berishini isbotladi. Shu bilan birga, o‘z-o‘zini rag‘batlantirish ko‘rsatkichida sezilarli farq kuzatilmagan, bu esa individual motivatsiya omillari ustida qo‘shimcha ish olib borish zarurligini anglatadi.



**1-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari modeli**

